



**SAID AHMAD ESSELARIDA SHAXSIY XOTIRA VA HAYOTIY
SARGUZASHTLARNING O'RNI(O.SHARAFIDDINOV MISOLIDA)**

Lapasova Go'zal Unarboy qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika

fakulteti boshlang'ich ta'lim nazariyasi va

metodikasi kafedrası o'qituvchisi

gozallapasova88gmail.com

+998933032896

ANNOTATSIYA. Said Ahmad va Ozod Sharafiddinovlar birgalikda ilm va ijodda hamkorlikning go'zal samaralarini yaratdilar. Ozod Sharafiddinov odil inson, zahmatkash olim, mehribon padar sifatida bu yorug' dunyoda muhtasham iz qoldirdi. O'zidan o'lmas ijodiy meros qoldirdi. Bu ijod nainki bir insonning, balki butun bir millatning faxr-u g'ururi bo'la oladigan ijoddir, o'zbek xalqining, millatimizning o'tmishi, buguni va kelajagiga dahldor ijoddir. Ozod Sharafiddinov fikrat ibrati, jasorat ibrati, ta'b ibrati, zakovat ibrati singari bir qancha ibratlarni o'zida mujassamlashtirgan allomalarimizdan edi.

KALIT SO'ZLAR. O.Sharafiddinov, munaqqid, kitobsevar, kitobsuyar, kitobso'yar

Kishi ismiga tortadi degan ta'bir – dono hikmat. Ozod Sharafiddinov O'zbekiston va o'zbek adabiyotining XX asr tarixida chinakamiga o'z shaxsi, o'z dunyoqarashi, o'z e'tiqodi, o'z iste'dodi, o'z imkoniyatlari ozodligini bir butun takrorlanmas hodisa deb bilgan, bu yuksak qadriyatlar taqozo etadigan mashaqqatlar yukiga yelkasini og'rinmay tutgan, bir zum el nazaridan chetda emasligini his etib yashagan allomalardan.

Hazrat Mahmud Qoshg'ariy qomusini turkiy tilda tuzib ketgan, Yusuf Xos Hojib va Navoiy ruhiy qudrati bilan buyuk ma'naviy obidalar yaratilganidan keyin asrlar o'tib Mavlono Abdulla Qodiriy qalamidan dilbar nasr dunyoga kelgani hammaga ayon. Ana shu silsilada davr taqozosi bilan uzilish sodir bo'lganida Ozod



Sharafiddinov degan munaqqid dunyoga kelishi tabiiy edi. Odil Yoqubov nasri va Abdulla Oripov nazmi yangi bir avlod dunyoga kelganini isbotlashi uchun ularni nazorat - tahliliy jihatdan qo'llab-quvvatlash kerak edi. Ana shu zalvorli yukni zimmasiga olgan adabiy tanqidchimiz o'zbek adabiyoti silsilasida uzilish bo'lmasligi uchun kurashdi, mas'uliyatini tengdoshlari bilan baham ko'rdi, rang-barang asarlarni qo'llab-quvvatladi, javobini ololmagan savollariga jahon adabiyoti va falsafasi ummonidan talqin izladi, nimalarnidir topgandek bo'ldi. Qarabsizki, nafaqat 60-yillar avlodlari, qolaversa, yangi avlodlar ham Ozod Sharafiddinov nuqtayi nazari bilan hisoblashadigan bo'ldi. Buning boisi alloma yaratgan maqolalar va asarlar nainki adabiy, shuning barobarida falsafiy tanqid edi. Ozod Sharafiddinov adabiyotning bosh vazifasi Olam, Inson va uning qalbini tasvirlash degan azaliy qadriyat, ya'nikim bag'ri butunlikda ekanligiga sodiq qoldi. Ozod Sharafiddinov mehnat faoliyatining asosiy qismi o'zi o'qigan O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti)da kechdi. U 1955-1995-yillar oralig'ida, qariyb qirq yil mana shu ilm dargohida yoshlarga bilim va tarbiya berdi, minglab shogirdlarga beminnat ustozlik qildi. Chin ma'nodagi ziyoli, milliy ma'naviyatimizning yirik darg'alaridan bo'lgan Ozod domlaning farzandlariga aytgan so'nggi so'zlari ham avlodlarga bir vasiyatdek yangrab qoldi: – “Kitoblarimni asranglar, mening eng katta boyligim mana shu kitoblar edi...”

Said Ahmad “Yo'qotganlarim va topganlarim” kitobidagi “Yoqimtoy inson, bilimdon olim Ozod Sharafiddinovning kitobsevarligi to'g'risida bilgan va bilmaganlarim” deb nomlangan qismida Ozod Sharafiddinov to'g'risida quyidagi fikrlarni bildiradi: – “O'zingiz bilasiz, ko'pchilik yozuvchilarning xususiy mashinalari bor. Ular biron joyga safar qilmoqchi bo'lsalar, Ozod ularga hamroh bo'ladi. Bu dilkash, istarali olimning hamsafar bo'lishidan huzur qilasiz. Yo'l-yo'lakay undan ohori to'kilmagan gaplarni eshitasiz... Dunyoda shu bola o'qimagan kitob qoldimikan, deb o'ylaysiz... Shuni ham aytib qo'yayki, Ozod bilan safarga chiqish rohat, safardan birga qaytish azob”¹. Said Ahmad Ozod Sharafiddinovning

¹ Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. –T.: Sano-standart nashriyoti, 2014. Xotiralar. Adabiy o'yalar. – B. 265.



kitobsevarligi haqida shunday yozadi: – “Albatta, mashinada safarga chiqqan yozuvchiga xotin, bola-chaqalari Marg‘ilonning oq luchchagidan olakeling, deyishadi. Biri G‘irvonning anoridan ko‘proq olib keling, desa, biri Kosonsoyning noki esingizdan chiqmasin, deydi. Yana biri Andijonning devzirasini biladigan odamga ko‘rsatib oling, deb tayinlaydi. Birovi Oltiariqdan g‘irillab o‘tib ketmay, turpidan biron qop, albatta, oling, deydi.

Ozod bilan safarga chiqqan odamga bu gaplar xayf. Chunki safardan nainki uning o‘zi, hatto uni safarga olib ketgan mashinali do‘stlari ham ikki qo‘llarini burunlariga tiqib, qup-quruq qaytadilar.

Sabab? Yo‘lda qandoqki kitob do‘koni ko‘rinsa, Ozod to‘xtat, deb shafyorning bilagiga yopishadi. U, albatta, do‘konga kiradi. Ikki soat chamasi kitob titadi. Keyin ikki qo‘ltig‘i to‘la kitob, orqasida o‘shancha kitob qo‘ltiqlagan sotuvchi chiqib mashinaning yukxonasiga tapillatib tashlaydi. Shunaqa do‘konlarning to‘rttasiga kirgandayoq mashina to‘ladi. Shundan keyin Ozod boshqa mashinaga o‘tadi. Uni ham kitobga to‘ldiradi. Ikkala mashinaning g‘ildiragi yuk og‘irligidan yerga qapishadi. Qo‘zg‘alganda motor ingrab yuboradi. Nechta mashina bilan yo‘lga chiqqan bo‘lsak, hammasi kitob bilan band bo‘ladi. Bu kitob “jinnisi” do‘stimiz oxirgi tiyinigacha kitobga sarflab, oxiri bizga qaram bo‘lib qoladi. Xotini Sharofatxon bilan qizi Muhabbat atlas olib keling, deb bergan pul ham qulog‘ini ushlagancha ketadi. Toshkentda bola-chaqalari, kelin-u kuyovlari, nevaralari dadamiz uni olib keladi, dadamiz buni olib keladi, deb chuchvarani xom sanab o‘tiraverishadi”².

Said Ahmad Ozod Sharafiddinov bilan safarga chiqish bir dunyo quvonchligi, ammo safardan birga qaytishni Xudo hech bir musulmon bandasining boshiga solmasligi, chunki birga safarga chiqqan yor-birodarlar mashinada joy qolmaganidan ko‘pchiligi poyezd yo samolyotda qaytib ketsa, puli qolmaganlari noiloj kitoblar orasida bir poy dumbasi bilan o‘tirib, inson bolasi ko‘rmagan azoblarda uyga vergulga o‘xshab qiyshayib yetib kelishi, Ozod mashhur kitobsevarlardan hisoblanishini ta’kidlaydi.

² Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. –T.: Sano-standart nashriyoti, 2014. Xotiralar. Adabiy o‘ylar. – B. 267.



Kitobsevar boshqa, kitobso‘yar boshqa, kitobsuyar boshqa. Adabiy tanqidchiligimizda UCHCHOVI ham bor. Kitobsevar kitobni muqaddas biladi. Uning muallifiga hurmat bilan qaraydi. Kitobsuyar qo‘lyozmani o‘qib, bunda bir gap bor, sal turtki bilan yaxshi kitob bo‘lishi mumkin, deb suyab qo‘yadi. Kitobso‘yar esa kitobning ichak-chavog‘ini ag‘darib so‘yadi. Uning ma’nosini, badiiyligini sariq chaqaga ham olmaydi. Ozod Sharafiddinov ijod qilgan kattakon davrda o‘zbek adabiyotida jahon adabiyoti talablariga javob bera oladigan bir talay asarlar yaratildi. Shuhrat, Said Ahmad, Shukrullo, ularning izidan kelgan Pirimqul Qodirov va Odil Yoqubov, so‘z san’atimizga yangi qon bo‘lib qo‘shilgan O‘tkir Hoshimov va Shukur Xolmirzayev, she’riyatimiz ufqlarini kengaytirgan Erkin Vohidov va Abdulla Oripov singari o‘nlab, yuzlab ijodkorlar biri-biriga o‘xshamagan, betakror asarlar yaratdilar. Shunda Ozod Sharafiddinovning “Iste’dod – Xalq mulki” degan iborasi mag‘rur jarangladi. Uning yutuqlaridan quvongan munaqqid har bir yaxshi namunasini kitobxon ahliga yaqinlashtirdi, ijodkor nazarda tutmagan jihatlarini kashf etdi, xalq farzandlarini adabiyotni tushunishga o‘rgatdi. Said Ahmad Ozod Sharafiddinovning munaqiddlik faoliyatini quyidagicha baholaydi: – “Na chora, gul bitgan joyda tikan ham, yantoq ham bitadi. Yangi kitob qo‘lyozmalari muhokamalariga Ozodni ham chaqirib turishadi. Ma’lumki, bu kitoblarni yo biron vrach, yo biron injener, yoki bo‘lmasa pensiyaga chiqib, nima ish qilishini bilmay o‘tirgan, men ham bittagina roman yozib qo‘yay, degan “havaskorlar” yozgan. Yozgan narsasini ko‘pchilik bo‘lib erinmay muhokama qiladilar. Natijada, bo‘lmaydi, boshqa tirikchilik qiling, degan gap aytiladi”³. Ozod Sharafiddinov esa o‘z fikrini nazokat bilan, muallifning dili og‘rimaydigan qilib aytish, ya’ni oldin so‘z aytgan o‘rtoqlarning fikriga qo‘shilgan bo‘lib: – “Lekin do‘stlarimiz aytgan kamchiliklar qunt bilan tuzatilsa, juda yaxshi asar bo‘lishi mumkin”, – degan xulosa beradi. Oldingi gapirganlar “asar”ning turgan-bitgani nuqsondan iborat, uni yangitdan yozib chiqish kerak, degan xulosaga kelishadi. Ozod Sharafiddinov ham

³ Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. –T.: Sano-standart nashriyoti, 2014. Xotiralar. Adabiy o‘ylar. – B. 267.



aslini olganda xuddi shu gapni aytganligi, faqat yo‘li bilan, juda chiroyli qilib aytganligini ta’kidlaydi, Said Ahmad.

Ozod Sharafiddinov iste’dodini, kelajakda katta ijodkor olim bo‘lishini Abdulla Qahhordek ulug’, xalqimiz sevgan adibimiz ko‘ra bilgan va mehr qo‘yib, bag‘riga olgan edi. Abdulla Qahhor suhbatlarining birida Ozod Sharafiddinovni tilga olib: –“Shunday yozmoq kerakki, nosfuriyot sening kitobing sahifasiga nos o‘rab sotgan bo‘lsa, uyida uni ochib, matniga ko‘zi tushgan odam: – “Te, bu Ozodning gaplari-ku”, deya sahifani ehtiyot qilib, olib qo‘ysin”. Bu haq gapni tan olgan va qadrlay bilgan Ozod Sharafiddinov “... bundek mukammal yozmoq uchun, bu darajada barkamol san’at namunasini yaratmoq uchun ijodkor Abdulla Qahhordek mehnatkash bo‘lmog‘i lozim. Bu esa hammaga ham nasib qilavermaydi. Faqat o‘z Vatanini jon dilidan yaxshi ko‘rgan, o‘z xalqini har tomonlama barkamol ko‘rishni istagan, ko‘ksida istiqloq yo‘lqini barq urib turgan san’atkorgina bu baxtga musharraf bo‘ladi”, deb qayd etgan edi. Ustozni bunday ulug‘lash va ularga ta’zim qila bilish uchun Ozod Sharafiddinovdek adabiyotshunos bo‘lib yetilmoq kerak.

Said Ahmad Ozod Sharafiddinovni yana bir quyidagi voqea bilan esga oladi: – “Devonafe‘l shoir bo‘lardi. Bir gapni ayta turib, boshqa gaplarni ham aralashtirib yuborardi. U har kuni redaksiyaga kelib, bitta joyni egallab o‘tirar, almoyi-aljoyi gaplarni aytaverardi. Bir kun gapi juda aynib ketganda unga, jinnilik qilmang, dedim. Shunda u meni urgandi. Ertasiga G‘afur G‘ulom keldi. U bilan birpas gaplashib, uning miyasi aynib qolganini sezdi. Yelkasiga qo‘lini qo‘yib, do‘stim, jinni bo‘lsang ham, juda shirin jinni bo‘psan, dedi. Bu gap shoirga malol kelmadi. Qaytaga yoqdi. “Rahmat”, — deb, G‘afur akaning qo‘lini qisib qo‘ydi. Qarang, aslini olganda G‘afur aka bilan ikkovimizning gapimiz bir ma’noda edi. Ammo G‘afur aka malol kelmaydigan, hatto unga yoqadigan qilib “jinni” dedi. Gapning yo‘g‘on tomirini ushlab turib gapirishni G‘afur akaga chiqazgandi. Ozod ham gapning qon bosimini tomir ushlaymay turib biladi. Yozuvchilar uyushmasiga kitob olib keladiganlarning ba’zi “asarlari” badiiylikdan uzoq, tuzatib, epaqaga keltirib bo‘lmaydigan narsalar bo‘ladi. Ammo ularga tushuntirib bo‘lmaydi. O‘zlaricha, qoyil qilganman, degan fikrda bo‘ladilar. Ming marta ishlagan bilan epaqaga keltirib bo‘lmaydigan



“asar”ning muallifini Ozod qayta ishlasa yaxshi asar bo‘ladi, deb umidvor qilib kuzatib qo‘yadi. Nega unday qilding, ming ishlagan bilan undan hech vaqo chiqmaydiku, deganda u, qo‘yaver, dunyoyi bo umid, shu bilan ovora bo‘lib kun o‘tganini bilmay qoladi, deydi”⁴.

Bir rivoyatni keltiradi: “Afandi bas boylashib shaytonni yengibdi. Shart bo‘yicha yengilgan yengganga qul bo‘lib xizmat qilish kerak. Shayton, nima ish buyurasiz, degandek ishshayib turganda, Afrikaga borib ona-bola tuyaqush olib kel, deb buyuribdi. Afandi og‘zidagi nosni tupuribdi. Nos yerga tushguncha shayton ona-bola tuyaqushni hovliga olib kiribdi.

— Obbo, — debdi Afandi, — bu bedavo maxluq ensamni qotirib qachongacha to‘g‘rimda o‘tiradi. Biron qiyin ish topshirib biroz dam olmasam bo‘lmaydi, debdi o‘ziga-o‘zi Afandi va boshidagi qorako‘l qalpog‘idan bitta tola yulib, shaytonga beribdi.

— Juda qiyshayib, buralib ketibdi. Shuni tekislab, to‘ppa-to‘g‘ri qilib ber, — debdi. Oradan necha yuz yillar o‘tib ketibdi hamki, shayton hamon qorako‘l tukini tizzaga qo‘yib, kafti bilan ishqab o‘tirgan emish..⁵.

Yuqorida aytilganidek, Said Ahmad fikrini quyidagicha xulosalaydi: “asar”i muhokama bo‘lgan yigit soqoli ko‘ksiga tushibdi hamki, beli bukchayib hassaga tayanib qopti hamki, yozuvchi bo‘laman, deb shaytonga o‘xshab hamon urinib yotibdi. Ozod shunaqalar to‘g‘risida gapirganda, “Har kim o‘zi bilgan, biladigan ishni qilishi kerak”, – deydi. Yozuvchilikni oson ish deganlar, mayli, yozib azobini tatib ko‘rsin, adabiyot qanaqa mushkul ish ekanini bilib qo‘yadi. Ozod Sharafiddinov o‘ttiz yildan ortiq Toshkent davlat dorilfununida o‘zbek adabiyotidan muallimlik qildi. Ming-minglab shogirdlar tayyorladi. Yigirmadan ko‘p shogirdi uning ilmiy rahbarligida fan nomzodi darajasiga erishdi. Ular orasida fan doktorlari, professorlar bor: Professor Umarali Normatov, dotsent Ortiq Abdullayev, Abdug‘afur Rasulov, Rahmon Qo‘chqorov.

⁴ Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. –T.: Sano-standart nashriyoti, 2014. Xotiralar. Adabiy o‘ylar. – B. 267-268.

⁵ Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. –T.: Sano-standart nashriyoti, 2014. Xotiralar. Adabiy o‘ylar. – B. 269.



Professor Ozod Sharafiddinov ilmiy pedagogik faoliyatidan uzilmagan holda adabiyotimizning chirsillab turgan masalalari to'g'risida yuzlab maqolalar e'lon qildi. U yaratgan "Zamon — Qalb — Poeziya" kitobi adabiyotshunosligimizga sarin bir shabada olib keldi. "Adabiy etyudlar", "Birinchi mo'jiza", "Adabiyotimiz bayroqdorlari", "Abdulla Qahhor" kitoblari uning naqadar teran fikrli, mulohazasi keng, uslubi ravon olim va publitsist ekanini namoyish qildi. Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin, deb shuni aytadilar-da. Ozod Sharafiddinov tinib-tinchimaydigan, har bir voqeaga shaxs sifatida munosabatini o'z vaqtida bildiradigan hozirjavob olim, yozuvchi, pedagog sifatida tilga olinadi Said Ahmadning "Yo'qotganlarim va topganlarim" kitobida.

"Shu bezovta qalb egasi, do'stlariga mehribon, shogirdlariga qattiqqo'l do'stimiz yetmish yoshga kirdi. Hayotning jami achchiq-chuchuklarini tatib ko'rgan, jarroh pichog'iga tanini mardona tutib bergan do'stim Ozod hamisha do'stlar ardog'ida. Shogirdlar qurshovida. Ixlosmandlar qosh-qabog'idadir. Salkam oltmish yil birga yo'l yurgan, birga ajib chiroyli xayollar surgan, go'zallar husniga birga mahliyo bo'lgan do'stim va ukam Ozodni shu muborak yosh bilan dil-dildan qutlayman. Uning hurmati o'z yo'liga, u uchun hamma narsani qilaman. Ammo u bilan safarga bormayman va u bilan safardan birga qaytmayman. Xafa bo'lsa bo'lar. Gapning ochig'ini aytdim. Mening ushbu maqolam kimga ma'qul kelgan bo'lsa qo'lini ko'tarsin! Rahmat, tushiringlar. Aksariyat. 1998"⁶

Ozod Sharafiddinov hayotda ham, ijodda ham o'zining haqqoniy so'zi, iroda va matonati bilan yurtdoshlarimizga, avvalambor yoshlarimizga ibrat bo'layotgan, tom ma'nodagi ma'rifatparvar insondir. Agar adabiyotimiz tarixi o'zanidan turib, yaqin yuz yillikka nazar tashlasak, juda ko'p qalamkashlarning nomlariga ko'zimiz tushadi. Ulardan hech birining xizmatlarini sira ham kamsitmagan holda aytish mumkinki, keyingi ellik yil ichida faoliyat ko'rsatgan adabiyotshunoslar, publitsistlar silsilasida Ozod Sharafiddinovning nomi alohida bir cho'qqi yanglig' ko'zga tashlanib turibdi.

⁶ Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. –T.: Sano-standart nashriyoti, 2014. Xotiralar. Adabiy o'yalar. – B. 270.



Said Ahmad va Ozod Sharafiddinovlar birgalikda ilm va ijodda hamkorlikning go‘zal samaralarini yaratdilar. Ozod Sharafiddinov odil inson, zahmatkash olim, mehribon padar sifatida bu yorug‘ dunyoda muhtasham iz qoldirdi. O‘zidan o‘lmas ijodiy meros qoldirdi. Bu ijod nainki bir insonning, balki butun bir millatning faxr-u g‘ururi bo‘la oladigan ijoddir, o‘zbek xalqining, millatimizning o‘tmishi, buguni va kelajagiga dahldor ijoddir. Ozod Sharafiddinov fikrat ibrat, jasorat ibrat, ta‘b ibrat, zakovat ibrat singari bir qancha ibratlarni o‘zida mujassamlashtirgan allomalarimizdan edi. Suyanadigan ma‘rifat bo‘lganidan keyin shunday bo‘lishi tabiiydir. Ustozdan minglab shogirdlar qoldi. Bu shogirdlar nafaqat O‘zbekistonda balki bizga ma‘lum bo‘lgan barcha mintaqalarda domla o‘rgatgan ilm bayrog‘ini baland ko‘tarib, chirog‘larini yoqib kelayotir.

Esseda qahramon yashagan davr sinovlari uning taqdirida o‘zining o‘chmas og‘riqli izini qoldirib ketgani o‘z aksini topgan. Ozod Sharafiddinovning esselarida, albatta, o‘sha davr kayfiyatini his qilganimiz holda bu jarayonni Said Ahmad ham ijodida, yozgan xotira-esselarida mavjud tuzumni o‘sha davrdagi insonlarning ijtimoiy hayotini ko‘rsatish texnikasidan unumli foydalangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. –Toshkent: Sano-standart nashriyoti, 2014. Xotiralar. Adabiy o‘ylar. – 352 b.

Said Ahmad. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. Toshkent. 2000

Qo‘chqorova M. Esse – erkin ijod. (Sh.Xolmirzayev bilan suhbat) // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. - 2003. - №16. –B.3.

Jahon adiblari adabiyot haqida. Ozod Sharafiddinov tarjimas. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2010. – B. 391.

Suvonova Rohila. “Yo‘qotganlarim va topganlarim”dagi esse janri xususiyatlari. “Said Ahmad ijodining ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyati va zamonaviy o‘zbek adabiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari to‘plami. 2020-yil 22-iyun.

Nasriddinova G. Hozirgi o‘zbek adabiyotida esse janrining taraqqiyoti (Said Ahmad va Ozod Sharafiddinov esselari misolida) mag. diss. – Guliston: 2022. 120 b.